**NAMANGAN VILOYATI KOSONSOY TUMANI HOKIMINING**

# QARORI

2024-yil 31-avgust 347-6-80-Q/24 Kosonsoy tuman hokimligi

## Kosonsoy tumanida 2024-yilda transport vositalarining majburiy texnik koʻrigini oʻtkazish toʻgʻrisida

“Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekistan Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yoʻl harakati xavfsizligi toʻgʻrisida”gi Qonunining 17-moddasi, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik koʻrikdan oʻtkazish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomga (keyingi oʻrinlarda – Nizom) muvofiq transport vositalarining 2024-yilda majburiy texnik koʻrigini tashkil qilish maqsadida,

**Q A R O R Q I L A M A N:**

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qatʼiy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli boʻlgan transport vositalari majburiy texnik koʻrikdan oʻtkazilsin.

2. Quyidagilar:

Kosonsoy tumanida 2024-yilda transport vositalarining majburiy texnik koʻrigini oʻtkazish boʻyicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Kosonsoy tumanida 2024-yilda jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boʻlgan transport vositalarining majburiy texnik koʻrigini oʻtkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari qoʻyidagi davriylikka muvofiq texnik koʻrikdan oʻtkazilsin:

tijorat asosida yoʻlovchilar tashish faoliyati bilan shugʻullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va oʻrindiqlar soni 8 ta va undan ortiq boʻlgan (haydovchining oʻrnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun

jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, ogʻir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan koʻp boʻlmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida koʻrsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq boʻlgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq boʻlmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida koʻrsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik koʻrikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik koʻrikdan oʻtkazishning ilgari oʻrnatilgan muddatlaridan qatʼi nazar, ularni Davlat yoʻl harakati xavfsizligi xizmati (keyingi oʻrinlarda - DYHXX) organlarida roʻyxatdan oʻtkazish (qayta roʻyxatdan oʻtkazish) vaqtida (birinchi marta roʻyxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida koʻrsatilgan transport vositalarining texnik koʻrigi:

birinchi marta – 1-mart - 30-iyunda;

ikkinchi marta – 1-sentyabr – 31-oktyabrda oʻtkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik koʻrigi 1-yanvar – 31-dekabrda oʻtkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik koʻrikdan oʻtkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik koʻrikdan oʻtkazishda:

transport vositasini roʻyxatdan oʻtkazish toʻgʻrisidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) koʻrsatilgan maʼlumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat roʻyxatidan oʻtkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yoʻl harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport

vositasining rang-grafik boʻyash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilgʻisida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik koʻrikdan oʻtkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan oʻtkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini taʼminlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik koʻrigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq oʻtkaziladi hamda tegishli yigʻim undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat koʻrsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli boʻlgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subyektlari tomonidan texnik koʻrikdan oʻtkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari boʻlgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik koʻrikdan oʻtkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini oʻz vaqtida texnik koʻrikdan oʻtkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik koʻrikdan oʻtkazish tartibi toʻgʻrisida nizomni tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarori 3-bandiga koʻra Oʻzbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy boʻlinmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik koʻrikdan oʻtkazilishi inobatga olinsin.

9. Tuman hokimining 2021-yil 28-dekabrdagi 497-6-80-Q/21-sonli qarori oʻz kuchini yoʻqotsin.

10. Ushbu qaror rasman eʼlon qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi oʻrinbosari (A.Xudayberdiyev) zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **D.Kadirov**

Kosonsoy tuman hokimining
2024-yil 31-avgustdagi
347-6-80-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi**

# T A R K I B I

Komissiya raisi :

| | |
|---|---|
| D. Qodirov | - Namangan tuman IIB JXX YHXG katta inspektori, mayor |

Komissiya a'zolari:

| | |
|---|---|
| S. Tursunov | - Namangan viloyati transport boshqarmasi sektor mudiri |
| U.Mirzaev | - Tuman mudofaa bo‘limi Rezervistlar va harbiy xizmatga majburlarni hisobga olish bo‘linmasi boshlig‘i |
| F.I.Sh. (lavozimiga ko‘ra) | - Tuman ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi |
| Z.G`aniev | - Tuman mudofaaga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” bo‘linmasi boshlig‘i |

Kosonsoy tuman hokimining
2024-yil 31-avgustdagi
347-6-80-Q/24-son qaroriga
2-ilova

**Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boʻlgan transport vositalarining 2024 yilgi majburiy texnik koʻrikdan oʻtkazish**

**J A D V A L I**

| T/r | Tashkilot, korxona, xoʻjaliklar, muassasalar nomlari | Texnik koʻrikni oʻtkazish kuni | Texnik koʻrik oʻtkaziladigan joy | Koʻrikni oʻtkazish vaqti | Transport vositalari soni |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Tuman mudofaaga kumaklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti ukuv sport texnika klubi | 11.05.2024 | Oʻz.Res.VMning 09.03.2021 yildagi 125sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 29 va 34bandlarida koʻrsatilgan joylarda | 09:00<br>12:00 | 36 |
| 3 | K.Muminov MChJ | 15.05.2024 | | 09:00<br>12:00 | 12 |
| 4 | Podshooto chodak irrigatsiya tizimi | 23.05.2024 | | 09:00<br>12:00 | 12 |
| 5 | Vodiy gaz ta’minot UK Kosonsoy filiali | 04.05.2024 | | 12:00<br>16:00 | 9 |
| 8 | Chashmai safed fermer xujaligi | 03.04.2024 | | 09:00<br>12:00 | 5 |
| 11 | Kosonsoy tuman pochta aloka bulimi | 23.04.2024 | | 09:00<br>11:00 | 3 |

| T/r | Tashkilot, korxona, xoʻjaliklar, muassasalar nomlari | Texnik koʻrikni oʻtkazish kuni | Texnik koʻrik oʻtkaziladigan joy | Koʻrikni oʻtkazish vaqti | Transport vositalari soni |
|---|---|---|---|---|---|
| 14 | Kosonsoy tuman avtomobil yullar bulimi | 19.05.2024 | | 12:00<br>17:00 | 7 |
| 15 | Kosonsoy sixatgoxi MChJ | 19.05.2024 | | 09:00<br>12:00 | 5 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 16 | Faxriylar sixatgoxi MChJ | 20.05.2024 | | 09:00<br>12:00 | 5 |
| 17 | Tuman aloka va komunikatsiya boglanmasi | 22.05.2024 | | 09:00<br>12:00 | 3 |
| 18 | Tuman Agorosugurta bulimi | 14.03.2024 | | 09:00<br>11:00 | 2 |
| 19 | Kosonsoy tuman 44 maxsus maktab internati | 22.03.2024 | | 09:00<br>11:00 | 3 |
| 21 | Kosonsoy tuman 45 maxsus maktab internat | 20.03.2024 | | 09:00<br>14:00 | 2 |
| 23 | Kosopsoy tuman al oka va transport kolleji | 15.04.2024 | | 12:00<br>14:00 | 2 |
| 24 | Kosonsoy tuman tibbiyot kolleji | 25.05.2024 | | 09:00<br>12:00 | 3 |
| 25 | Kosonsoy tuman yengil sanoat kasb xunar kolleji | 30.05.2024 | | 09:00<br>12:00 | 2 |
| 26 | Kosonsoy tuman taxririyati | 03.04.2024 | | 09:00<br>10:00 | 1 |
| **T/r** | **Tashkilot, korxona, xo‘jaliklar, muassasalar nomlari** | **Texnik ko‘rikni o‘tkazish kuni** | **Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy** | **Ko‘rikni o‘tkazish vaqti** | **Transport vositalari soni** |
| 27 | Tumandagi boshka tashkilotlar | 01.06.2024 | O‘z.Res.VMning 09.03.2021 yildagi 125sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 29 va 34bandlarida ko‘rsatilgan joylarda | 09:00<br>18:00 | 47 |
| 28 | Shirin va Koson FI da yashovchi fukarolarning shaxsiy avto-moto transportlari | 01.04.2024 | | 09:00<br>18:00 | Shaxsiy |
| 29 | Chindovul va Tergachi FY da yashovchi fukarolarning shaxsiy avto-moto transportlari | 10.04.2024 | | 09:00<br>18:00 | Shaxsiy |
| 30 | Korasuv va Yeshlik FY da yashovchi fukarolarning shaxsiy avto-moto transportlari | 15.04.2024 | | 09:00<br>18:00 | Shaxsiy |
| 31 | Kukumboy FY da yashovchi fukarolarning shaxsiy avto-moto transportlari | 17.04.2024 | | 09:00<br>18:00 | Shaxsiy |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 32 | Tumandagi boshka firma va xususiy korxonalar | 01.07.2024 | | 09:00<br>18:00 | 166 |
| 33 | Kosonsoy tuman hokimligi | 31.03.2024 | | 09:00<br>11:00 | 4 |